



## O'zbekiston sharoitida huquqshunoslik fanlarini o'qitishning samarali yo'llari.

**Sulaymonbekov  
Suhaylbek Sobir O'g'li**

*Ichki ishlar vazirligi buxoro akademik litseyi  
huquqshunoslik fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda huquqshunoslik fanlarini o'qitishning turli xil foydali usullari ko'rib chiqiladi. Huquqshunoslik ta'limi jamiyatda huquqiy ongni oshirish va fuqarolarning huquqiy madaniyatni yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada zamonaviy ta'lim metodlari, o'qituvchilarni malakasini oshirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va amaliy o'quv dasturlarini yaratish kabi masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda huquqshunoslik ta'limining samarali tashkil etilishi, nafaqat talabalar uchun, balki jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Maqola huquqshunoslik fanlarini o'qitishning sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etadi.

This article explores various beneficial methods of teaching law in Uzbekistan. Legal education plays a crucial role in raising legal awareness in society and enhancing the legal culture of citizens. The article discusses modern teaching methods, enhancing the qualifications of teachers, the application of innovative technologies, and the creation of practical training programs. Moreover, it emphasizes the importance of effective organization of legal education in Uzbekistan, not only for students but also for society as a whole. The article provides recommendations aimed at improving the quality of legal education.

В данной статье рассматриваются различные полезные методы преподавания права в Узбекистане. Юридическое образование играет важную роль в повышении правового сознания общества и улучшении правовой культуры граждан. В статье обсуждаются современные методы обучения, повышение квалификации преподавателей, применение инновационных технологий и создание практических учебных программ. Также подчеркивается важность эффективной организации юридического образования в Узбекистане, не только для студентов, но и для общества в целом. Статья предлагает рекомендации, направленные на улучшение качества юридического образования.

**Kalit so'zlar :** Huquqshunoslik ta'limi, zamonaviy ta'lim metodlari, amaliy klinikalar, o'qituvchilar malakasi, innovatsion texnologiyalar, huquqiy ong, o'quv dasturlari, huquqshunoslik, pedagogika, ko'ptillilik.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlatning barpo etishda bosh huquqiy omil hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlari va qonunosti hujjatlari shuningdek, huquqshunoslik fanlarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni hamda mohiyatini uzluksiz o'rganish huquqshunoslik fanlarini o'qitish va ularni amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. "Huquqshunoslik" fani inson dunyoqarashi, uning huquq va davlat to'g'risidagi tasavvuri, tushuncha va bilimlari shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ammo mavjud huquqshunoslik fanlarini o'qitish usullari yetarlicha samara bermayotganligi barchaga kunday ayon. Shu sababli xorij tajribasi va milliy an'analarini inobatga olib zamonaviy pedtexnologiyalar asosida huquqshunoslik fanlarini o'qitishning yangicha modelini yaratish lozim. Bu sohada qilinadigan ishlar talaygina bo'lib quyidagilardan boshlashni taklif qilardim:

- Zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llash orqali yangicha huquqshunoslik darslarini tashkil etish;
- Onlayn dars, virtual kurslar orqali huquqshunoslikka yosh avlodni qiziqtirish ;
- Yuridik klinika tashkil etish tizimini takomillashtirish;
- O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishning yangicha usullarini joriy etish;
- Zamonaviy xorijiy davlatlarning huquqshunoslik fanlarini o'qitish tajribasini o'zlashtirish;
- Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda sun'iy intellect imkoniyatlaridan foydalanish.

O'zbekiston sharoitida huquqshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorlikni oshirishning eng ta'sirchan kuchi hisoblanadi. Bugungi kunda ta'limda **interfaol metodlar**, **muammoli o'quv metodlari**, **case study** (hissiy holatlar) va **simulyatsiya metodlari** keng qo'llash ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Masalan, talabalar huquqiy vaziyatlar bo'yicha real hayotdan olingan holatlarni tahlil qilish va ularni yechish orqali huquqiy qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

Shuningdek, **internet resurslari**, **onlayn kurslar** va **virtual sinflardan** tashkil etish orqali huquqshunoslik ta'limining sifatini oshirishga yordam beradi. Onlayn platformalarda o'quvchilar huquqiy mavzularni tahlil qilish, jamoaviy muhokamalar o'tkazish va o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa darsdan keyin ham o'quvchida huquqshunoslik fani bilan shug'ullanishiga sharoit beradi.

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash huquqshunoslik ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda huquqshunoslik ta'limining samarali bo'lishi uchun talabalarga **huquqiy klinikalar** tashkil etish zarur. Huquqiy klinikalar talabalar uchun real hayotdagi huquqiy masalalarni hal qilish, mijozlarga **yuridik maslahatlar** berish, huquqiy hujjatlar tayyorlash va sudda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday klinikalar talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni oshirishi bilan birga, jamiyatda huquqiy yordamga muhtoj fuqarolarga ham xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Shu bilan birga, huquqshunoslik fakultetlari va oliy ta'lim muassasalarida shu kabi klinikalar tashkil etish samarali natijalarga olib keladi.

Huquqshunoslik fanlarini samarali o'qitish uchun o'qituvchilarning **malakasi** katta ahamiyatga ega. O'qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar, yangi o'quv texnologiyalari va huquqshunoslik sohasidagi so'nggi yangiliklar bo'yicha doimiy ravishda tayyorlash zarur. Bu borada Adliya vazirligi tomonidan sohani rivojlantirish uchun qarorlar qabul qilishi kerak.

Yana bir muhim tomonlardan biri bu o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish uchun chet elda huquqshunoslik ta'limi bo'yicha **seminarlar, konferensiyalar** va **treninglarga** qatnashishi muhimdir. Bunday imkoniyatlar o'qituvchilarning bilimlarini kengaytirish, yangi metodlarni o'zlashtirish va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishda ularga yordam beradi.

Huquqshunoslik ta'limini samarali tashkil etish uchun amaliyotga asoslangan, yuqori sifatli va talabalar ehtiyojlariga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur. O'quv dasturlarida nafaqat nazariy bilimlar, balki huquqiy tizimni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham o'rgatish lozim.

O'quv dasturlarida **huquqiy etika, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati** va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish kabi mavzularni kiritish talabalar uchun muhimdir. Shu orqali talabalar o'zlarini huquqshunos sifatida ta'lim olish davomida jamiyatda yuzaga keladigan real vaziyatlarni tahlil qilishga tayyorlaydilar.

O'zbekiston huquqshunoslik ta'limini yanada takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. **Sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, blokcheyn texnologiyalari** kabi zamonaviy texnologiyalarni huquqshunoslik fanlariga qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Talabalar zamonaviy texnologiyalar yordamida huquqiy masalalarni tahlil qilish va yechimlar topish ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim.

Bundan tashqari, huquqshunoslik ta'limini taqdim etishda **ko'p tillilikka** alohida e'tibor berish zarur. O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatida turli tillarda ta'lim berish nafaqat talabalar uchun osonlashtiradi, balki xalqaro huquqshunoslik amaliyotini o'rganishga imkon yaratadi. Shuningdek, faqat o'zbek tilida emas boshqa tillarda ham milliy kontent yaratish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda huquqshunoslik fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, yuridik klinikalar tashkil etish, o'qituvchilarni malakasini oshirish, amaliy o'quv dasturlarini yaratish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi yo'llarni ko'rib chiqish zarur. Bularning barchasi talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishini, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtirishini ta'minlaydi. Shunday qilib, huquqshunoslik ta'limining sifatini oshirish va jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga katta hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023y.

3. To‘xtayev Sardor Sulton o‘g‘li. YURIDIK FAN VA HUQUQNI QO‘LLASH AMALIYOTINING DOLZARB MUAMMOLARI. Science and innovation. 77-b.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarori.
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Huquqshunoslik>.
6. <https://goaravetisyan.ru/uz/vzaimosvyaz-metodiki-prepodavaniya-prava-s-drugiminavkami-metodika>.